



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya: Darslik. – T.: Universitet, 2002. - 96b.
2. Manuel London, Valerie I.Sessa, and Loren A.Shelley Developing Self-Awareness: Learning Processes for Self and Interpersonal Growth. Annu.Rev.Organ.Psychol.Organ.Behav. November 18,2022 261p
3. Золотарева О. С. Влияние материнской депривации на развитие я-концепции детей подросткового возраста//дисс. автор. кандидата психологических наук. Астрахань – 2007. -22

VIRTUAL MUHITDA HISSIY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Mardiyeva Feruza Hasanovna

hasanovnaferuza6@gmail.com

So'nggi yillarda zamonaviy yuqori texnologiyali aloqa vositalarining, birinchi navbatda internetning jadal rivojlanishi subyektning shaxslararo munosabatlar tizimida bilvosita aloqa ulushining oshishiga olib keldi (A.E.Voiskunskiy). Kommunikativ jarayon strukturasining virtual kommunikativ makonni tashkil etishning texnik xususiyatlariga muvofiq o'zgarishi vositachilik aloqasi subyektlari xususiyatlarining tabiiy o'zgarishiga olib keldi. Faoliyatning barcha sohalarida va kundalik hayotda internetdan keng foydalanishga asoslangan zamonaviy axborot muhitining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi butunjahon Internet tarmog'idan foydalanuvchilarning deyarli nazoratsiz o'sishini rag'batlantiradi. U aholining barcha qatlamlari uchun ham texnik, ham moddiy jihatdan qulayroq bo'lib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ma'lumotlar uzatish tezligining oshishi, virtual maydonni 3D formatda modellash tirish, texnologik vositalarning arzonlashuvi shaxsning virtual olamga sho'ng'ishiga tobora ko'proq hissa qo'shmoqda. Internet ko'p afzalliklarga ega bo'lishiga qaramay, u gumanitar xarakterdagi bir qator muammolarni va keng ko'lamli kompyuterlashtirishning ijtimoiy va psixologik ta'sirini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Psixologiya fanida shaxsning boshqa shaxslar bilan munosabatlarini turli sohalarda o'rganish 20-asr boshlaridan boshlab amalga oshirilgan. Ushbu masalaga dastlabki qiziqish ramziy intereksionizm va personologiya vakillari (V.Jeyms, C.Kuli, J.Mid) tomonidan namoyon qilingan.

Xalqaro demografik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, internetga qaramlik butun dunyoda shiddat bilan tarqalib, tobora kengayib bormoqda. Hattoki, Janubiy Koreyada bu eng jiddiy sog'liq muammolaridan biri sifatida qaraladi. AQShda aholi o'rtasida internetga qaramlikning tarqalish darajasi 5%, Yevropada 2% dan 4% gacha bo'lgan ko'rsatkichni tashkil qiladi va Osiyo mamlakatlarida internetga qaramlikning namoyon bo'lishi yanada jiddiyroq va bu foydalanuvchilarning 10.7% ni qamrab olgan. Turli manbaalarga ko'ra, Rossiyada internetga qaramlik darajasi 1.7%dan 4.3%gacha bo'lgan ko'rsatkichni tashkil qilar ekan. Shu narsa hayratlanarliki, qisqa vaqt ichida internet bizning hayotimizga mustahkam o'rnashdi va inson psixikasi darajasida bir qator muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi va bu jarayon davom etmoqda.

Zamonaviy mahalliy va xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga qadar internetga qaramlik fenomeni yetarlicha o'rganilgan. Jumladan, K.Yang, M.Griffits, A.E.Voiskunskiy, A.Y.Egorov va V.L.Malygin kabi psixologlar tomonidan internetga qaramlik mezonlari ajratildi va internetga qaramlik turlarining tasnifi ishlab chiqildi. Internetga qaramlikning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi neyrobiologik, genetik, ijtimoiy, psixologik omillari aniqlandi va keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo, hozirgi sharoitda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan "virtual muhitda hissiy intellektning ahamiyati" nisbatan kam o'rganilgan sohadir. "Hissiy intellekt" haqida gapirar ekanmiz, o'quvchida "hissiy intellekt o'zi nima?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu g'alizlikni bartaraf etish maqsadida "Hissiy intellekt"ga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tish maqsadga mufoqdir.

Psixologiyada "Hissiy intellekt"ga berilgan ta'riflar talaygina. Bu termin inglizcha "Emotional intelligence (EI)" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida lug'aviy jihatdan "hissiy aql/intellekt" ma'nosini beradi. Hissiy intellekt - ijtimoiy intellektning kichik bir guruhi hisoblanadi[1]. Hissiy intellekt bu- shaxsda o'zining emotsiyalarini boshqara olish, atrofdagilarning emotsiyalarini to'g'ri baholay olish, o'zgalarning his-tuyg'ulari va bu ma'lumotlardan insonning fikrlash va harakatlarini boshqarish uchun foydalanish qobiliyatini farqlay olishdir[2]. Psixolog D.Goleman hissiy intellektni shaxsiy emotsiyalar va o'zgalarning hissiyotlarini qabul qila olish, shaxslararo munosabatlarda o'zining hissiyotlarini nazorat qila olish va zarur bo'lganda o'z-o'ziga motivatsiya(self-motivated) bera olish qobiliyati sifatida izohlaydi. Yana bir psixolog Bar-on [3] hissiy intellektni murakkab bosim talablariga muvaffaqiyatli javob bera oladigan, kognitiv bo'lmagan malaka va ko'nikmalar jamlanmasi sifatida ta'riflaydi. Shaxsiy xususiyatlar bo'yicha olimlar Petrides va Furnham hissiy intellektni bir qancha hislatlar jumladan: emotsionallik, o'zini-o'zi nazarot qila olish, ijtimoiylashganlik va xushhollikning qorishmasi sifatida tushuntiradi[4]. Yuqorida nomi keltirilgan va boshqa olimlar o'rtasida hissiy intellektning ta'rifi haqida juda ko'p bahs-munozaralar bo'lgan, ammo bu sohada aniq fikrlagan olimlar Salovey va Mayerlar bo'lib, ular hissiy intellektni 4 ta asosiy jihatdan tashkil topgan deya asoslashadi. Bular quyidagilar:

1. Hislarning idrok etilishi
2. Yaxshiroq o'ylash uchun his-tuyg'ulardan foydalanish
3. His-tuyg'ularni tushunish
4. His-tuyg'ularni boshqarish.

Virtual hayotda hissiy intellektning ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, psixologiyada so'nggi yillarda zamonaviy texnologiyalarning insonning aqliy va ruhiy salomatligiga ta'sirini aniqlash maqsadida juda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Internet foydalanuvchilari sonining tobora o'sib borayotganini hisobga olgan holda, ikki olim Shek va Yu "Internetga qaramlik butun dunyo aholisi uchun jiddiy muammoga aylanishi mumkin, ayniqsa o'smirlar uchun" deya ogohlantiradi[5]. Psixolog Milford o'quvchilarning turli xil ijtimoiy tarmoqlardan (masalan, bloglar, forumlar, virtual hamjamiyatlar) turli xil maqsadlarda jumladan, ko'ngilochar maqsadlarda, o'qish-o'rganish va muloqot maqsadlarida foydalanishi odatga aylanib qolayotganligini kuzatdi[6]. Ammo ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p vaqt sarflash foydalanuvchining ta'lim olish, ish jarayoni va shaxsiy munosabatlar tizimiga jiddiy xavf solishi mumkin[7]. Internetdan noto'g'ri foydalanish psixologik distress va aqliy

salomatlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Internetga qaramlik yoshlarning fizilogik va ruhiy salomatligini xavf ostiga qo'yuvchi jiddiy ruhiy muammo sifatida qaraladi. Hozirda ko'plab olimlar Internetga qaramlikning sabablariga katta qiziqishlarini namoyon etmoqda. Psixolog Trumello o'smirlarlik - shaxsiyatning shakllanish va fiziologik hamda psixologik jihatlarida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladigan o'ta nozik davrdir. Bu davrda yangi tenologiyalar o'smirlar hayotida odamlarni o'ziga jalb qilish, kengroq ijtimoiy aloqalarga kirish, "yangi virtual dunyoni" tadqiq qilish vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi deya izoh beradi[8]. Psixolog Young, o'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga 4 ta muhim omil ta'sir qilishini aniqladi bular: reklamalar, hissiyotlar, bilish jarayonlari va hayotdagi maxsus hamda kutilmagan hodisalar. Ilovalar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi chunki internetga qaram bo'lgan odamlar odatda muayyan bir ilovaga haddan tashqari bog'lanib qolgan bo'ladi. Hissiyotlar Internetdan noto'g'ri foydalanishni kuchaytirib yuborishi mumkin chunki addiktiv xulq-atvor ulardan olinadigan ruhiy zavqning doimo o'sib borishini istaydi. Hayajon, eyforiya va zavq, tez-tez internetga qaramlikni keltirib chiqaruvchi qo'zg'atuvchilarga ta'sir o'tkazib turadi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, hissiy intellekt tabiati haqidagi bilimlarga ega bo'lish, har bir internet foydalanuvchilariga qimmatli vaqtini to'g'ri boshqarish, taqsimlay olish hamda samarali va mazmunli ish faoliyatini yuritishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. V. S. Carvalho, E. Guerrero, and M. J. Chambel, "Emotional intelligence and health students' well-being: a two-wave study with students of medicine, physiotherapy and nursing," *Nurse Education Today*, vol. 63, pp. 35–42, 2018.
2. P. Salovey and J. D. Mayer, "Emotional intelligence," *Imagination, Cognition and Personality*, vol. 9, no. 3, pp. 185–211,
3. R. Bar-On, "BarOn Emotional Quotient Inventory," *Multihealth systems*, 1997.
4. K. V. Petrides and A. Furnham, "Trait emotional intelligence: psychometric investigation with reference to established trait taxonomies," *European Journal of Personality*, vol. 15, no. 6, pp. 425–448, 2001.
5. D. T. Shek and L. Yu, "Internet addiction phenomenon in early adolescents in Hong Kong," *The Scientific World Journal*, vol. 2012, Article ID 104304, 9 pages, 2012.
6. S. C. Milford, L. Vernon, J. J. Scott, and N. F. Johnson, "An initial investigation into parental perceptions surrounding the impact of mobile media use on child behavior and executive functioning," *Human Behavior and Emerging Technologies*, vol. 2022, pp. 1–11, 2022.
7. J. Hamissi, M. Babaie, M. Hosseini, and F. Babaie, "The relationship between emotional intelligence and technology addiction among university students," *International Journal of Collaborative Research on Internal Medicine & Public Health*, vol. 5, no. 5, 2013.
8. R. Baiocco, F. Laghi, M. Carotenuto, and C. Del Miglio, "Amicizia on-line: disimpegno o stimolazione," *Psicologia Clinica dello Sviluppo*, vol. 2, pp. 336–352, 2011.